

QUTQARUV ISHLARINING TURLARI

dotsent A.A.Tursunov

(Favqulodda vaziyatlar Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti)

TYPES OF RESCUE WORK

Associate Professor A.A.Tursunov

(Institute of Civil Protection under the Academy of Emergency Situations)

Annotatsiya. Mazkur maqolada favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda amalga oshiriladigan qutqaruv ishlarining asosiy turlari, ularning mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda boshqaruvning ko‘p bosqichli tizimi, kuch va vositalarning tezkor safarbar etilishi, resurslardan oqilona foydalanish ahamiyati ochib berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan olib borilayotgan qutqaruv tadbirlarining tashkiliy-huquqiy asoslari ham yoritilgan. Favqulodda vaziyatlarda tezkorlik, muvofiqlashtirilgan harakat va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish inson hayotini saqlab qolishda muhim omil ekani ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: favqulodda vaziyat, qutqaruv ishlari, xorijiy tajriba, boshqaruv tizimi, zamonaviy texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные виды спасательных операций, проводимых в чрезвычайных ситуациях, их содержание и значение. Также раскрывается важность многоуровневой системы управления в чрезвычайных ситуациях, оперативной мобилизации сил и средств, а также рационального использования ресурсов. Рассматривается и организационно-правовая база спасательных операций, проводимых Министерством чрезвычайных ситуаций Республики Узбекистан. Подчеркивается, что в чрезвычайных ситуациях скорость, скоординированные действия и использование современных технических средств являются важными факторами спасения человеческих жизней.

Ключевые слова: чрезвычайная ситуация, спасательные работы, зарубежный опыт, система управления, современные технологии.

Annotation. This article examines the main types of rescue operations conducted in emergencies, their content, and significance. It also explores the importance of a multi-level emergency management system, the rapid mobilization of forces and assets, and the rational use of resources. The organizational and legal framework for rescue operations conducted by the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan is also examined. It emphasizes that in emergencies, speed, coordinated action, and the use of modern technical means are essential factors in saving lives.

Key words: emergency, rescue operations, foreign experience, management system, modern technologies.

Oxirgi yillarda jahon miqyosida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimlarining o'rni kuchayib boradi. Insoniyatning rivojlanish tarixi tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar bilan bog'liqdir. Inson manfaati, uning qadr-qimmati, salomatligi va xavfsizligini ta'minlash - kundalik hayotimiz jabhalarida dolzarb, ustuvor va muhim o'rinni egallaydi. Shu sababli, favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini samarali tashkil etish va takomillashtirish zamonaviy xavfsizlik siyosatida muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar ko'lamining kengayib borishi qutqaruv ishlarini samarali tashkil etish masalasini yanada dolzarb etmoqda. Aholi hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, moddiy zararlarni kamaytirish hamda infratuzilmani tiklashda qutqaruvchilarning tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini tezkor, samarali va sifatli tashkil etish hamda olib borish usul va taktikalarni to'g'ri tanlash, qo'llash zarurati bugungi kundagi sanoat, ishlab chiqarish, texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda respublikamizda favqulodda vaziyatlarda insonlar hayotini saqlash, moddiy zararlarni kamaytirish hamda favqulodda vaziyat ko'lamini kengayib ketishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida mavjud qutqaruv ishlari usullari va taktikasini nazariy tomondan chuqur o'rganish, taxlil qilish orqali mavjud muammolarni yuzaga chiqarish, ushbu muammolarni yuzaga chiqarish orqali sodir bo'lgan har bir favqulodda vaziyatlarning xususiyatlari, kechishi, ko'lam va oqibatlaridan kelib chiqib yondoshuvni amalga oshiradi. Hech kimga sir emaski, katta ko'lamdagi favqulodda vaziyatlar o'zining og'ir oqibatlari, jiddiy talofotlari bilan ajralib turadi. Vaqt tanlamaydigan tabiiy yoki texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar bir necha soniya ichida yuzlab, minglab insonlarning qurbon bo'lishiga va juda katta miqdorda iqtisodiy zarar keltirishi mumkin. Dunyoda so'nggi yillarda sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq holatlarning amaliyoti shuni ko'rsatadiki, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, sodir bo'lganda uning oqibatlarini tezkor bartaraf etishda o'tkaziladigan qutqaruv ishlarini qisqa fursatlarda, yo'qotishlarsiz, xavfsiz o'tkazish qisqa vaqt mobaynida innovatsion usullardan samarali foydalanish orqali qutqaruvchilarning mehnat faoliyati samaradorligini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sababi, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda kuch va vositalar faoliyatini talab darajasida boshqarmaslik, kuch va vositalarning noto'g'ri taqsimlanishi, samarali qutqaruv ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan qimmatli vaqt o'tib ketishi natijasida aholi o'rtasida yo'qotishlar sonining ortishiga olib kelishi mumkin. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va sodir bo'lganda oqibatlarini bartaraf etish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, katta hajmdagi ishlarga qaramasdan, sohani yanada rivojlantirish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 26-dekabrda "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi Qonunining 1-bob 3-moddasida asosiy tushunchalar keltirilgan. Xususan:

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish - favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalarining kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui;

qutqaruv ishlari - favqulodda vaziyatlar zonasida odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, yuridik hamda jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va ularga xos bo'lgan xavfli omillar ta'sirini yo'qotish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan harakatlar deb ta'rif berilgan.

Mazkur Qonunning 6-moddasida esa qutqaruv ishlarining turlari umumiy qilib yoritilgan. Qutqaruv ishlariga avariya-qutqaruv, qidiruv-qutqaruv, tog'-kon qutqaruv, suv-qutqaruv, gaz-qutqaruv ishlari, shuningdek yong'inlarni o'chirish hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq ishlar kiradi.

Avariya-qutqaruv ishlari - odamlarni, moddiy va madaniy boyliklarni qutqarish, xavfli omillar ta'sirini tugatish va bartaraf etish bo'yicha ishlar majmui.

Qidiruv-qutqaruv ishlari - odamlarni, moddiy va madaniy boyliklarni topish va qutqarish, ularni xavfsiz joyga yetkazish, ma'lum bir hududlarda favqulodda vaziyatlar oqibatlari ta'sirini tugatish yoki imkon qadar kamaytirishga qaratilgan qutqaruv ishlar majmui.

Tog'-kon qutqaruv ishlari - yer osti va ochiq usulda tog' ishlarini olib borishda portlovchi materiallar va to'plangan kon gaz portlashlari, yong'inlar, gazlarning ifloslanishi, o'pirilish, geodinamik jarayonlar oqibatida gaz va tog' jinslarining otilishi, suv toshqini va boshqa turdagi avariyalarni tugatish va oqibatlarini bartaraf etish, odamlarni qutqarish, jabrlanganlarga yordam ko'rsatish bo'yicha qutqaruv va texnik ishlar majmui.

Suvda-qutqaruv ishlari - suv ostiga sho'ng'ish anjomlari yordamida suv havzalarida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar ta'sirini tugatish, oqibatlarini imkon qadar kamaytirish, odamlarni, moddiy va madaniy boyliklarni qutqarish, tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qutqaruv va texnik ishlar kompleksi.

Gaz-qutqaruv ishlari - toksik va (yoki) yong'in xavfi va yoki portlash xavfi yuqori bo'lgan materiallarni xavf darajasi belgilangan meyordan ortiq bo'lgan hududda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar ta'sirini tugatish, oqibatlarini imkon qadar kamaytirish, odamlarni, moddiy va madaniy boyliklarni qutqarish, tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qutqaruv va texnik ishlar majmui.

Yong'inlarni bartaraf etish bilan bog'liq ishlar - obyektlarda tog' ishlarini olib borish jarayonlarida tog' qazilmalarida sodir bo'lgan yong'inlardan tashqari, obyektlar va hududlardagi yong'inlarni bartaraf etishda odamlarni,

moddiy va madaniy boyliklarni topish va qutqarishga, tabiiy muhitni muhofaza qilishga qaratilgan qutqaruv - texnik ishlar majmui.

Qutqaruv ishlari samaradorligini oshirish - favqulodda vaziyatlarda odamlarni tez va xavfsiz qutqarish, zararni kamaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanishni anglatadi. Samaradorlikni oshirish uchun bir nechta muhim yo'nalishlar mavjud. Xususan:

1. Tayyorgarlik va rejalashtirish - favqulodda vaziyatlar uchun aniq harakat rejalarini ishlab chiqish, qutqaruv bo'linmalari uchun muntazam mashq va treninglar o'tkazish, har bir hududda xavf tahlilini amalga oshirish.

2. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish - dronlar orqali ofat hududini kuzatish, GPS va raqamli xaritalardan foydalanib qutqaruvchilarni yo'naltirish, axborot tizimlari orqali tezkor ma'lumot almashish.

3. Tezkor aloqa va muvofiqlashtirish - qutqaruv xizmatlari, tibbiy yordam va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida yagona boshqaruv tizimi, radioaloqa va raqamli aloqa vositalarini yaxshilash.

4. Jihozlar va texnika - zamonaviy qutqaruv texnikasi, qutqaruvchilar uchun maxsus himoya kiyimlari va individual vositalar.

5. Aholini tayyorlash - aholiga favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilishni o'rgatish, maktab va tashkilotlarda evakuatsiya mashqlari o'tkazish.

6. Tahlil va tajriba almashish - har bir qutqaruv operatsiyasidan keyin tahlil qilish, xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy qilish.

7. Natija - qutqaruv vaqti qisqaradi, qurbonlar soni kamayadi va resurslar samarali ishlatiladi.

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda o'tkaziladigan qutqaruv ishlari uchun kerakli kuch va vositalarni hisoblash:

$$N = \frac{S \cdot K}{P}$$

Bu yerda:

N - qutqaruvchilar soni,

S - zarar ko'rgan hudud maydoni (m^2 yoki km^2),

K - murakkablik koeffitsiyenti (vayrona darajasiga bog'liq),

P - bitta qutqaruvchining unumdorligi ($m^2 / soat$).

Qutqaruv ishlarini o'tkazish davomiyligi:

$$T = \frac{V}{N \cdot Q}$$

Bu yerda:

T - ishlar davomiyligi (soat),

V - bajarilishi kerak bo'lgan ishlar hajmi,

N - qutqaruvchilar soni,

Q - bitta qutqaruvchining ish samaradorligi.

Jabrlanganlarni evakuatsiya qilish vaqti:

$$T_{evak} = \frac{M}{R}$$

Bu yerda:

M - jabrlanganlar soni,

R - bir soatda evakuatsiya qilish imkoniyati.

Qutqaruv ishlari samaradorligi:

$$E = \frac{N_{\text{qutqarilgan}}}{N_{\text{jabrlangan}}} \times 100\%$$

Ilmiy asoslangan qutqaruv samaradorligini baholash formulasi:

$$R_s = \frac{Pr \cdot Tr \cdot Ch \cdot Ti}{Dt}$$

Bu yerda:

Rs - qutqaruv samaradorligi,

Pr - resurs va personal yetarliligi,

Tr - tezkorlik (vaqt omillari),

Ch - aholi va ixtiyoriy ishtirok koeffitsiyenti,

Ti - texnologiyalar integratsiyasi,

Dt - favqulodda vaziyatning qiyinchiligi (shiddati).

Izoh: bu formula qutqaruv samaradorligini har bir element bo'yicha ilmiy baholash imkonini beradi.

Misol tariqasida 2023-yilning fevral oyida Turkiya Respublikasida ro'y bergan kuchli zilzila oqibatlarini bartaraf etishda amaliy yordam ko'rsatish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining professional qutqaruvchilari, qidiruv-qutqaruv transportlari va qidiruv itlari bilan qidiruv-qutqaruv ishlarida ishtirok etgan. Qutqaruvchilar belgilangan hududga yetib borish bilan 2 ta guruhlar tashkil etilib, 1-guruh "Ovakent" shaharchasida, 2-guruh Antakiya shahrining Odaboshi mahallasida qidiruv-qutqaruv ishlariga kirishishgan. Qidiruv-qutqaruv ishlari boshlanishidan qariyb 1 soatlar o'tib, ayol kishi zilziladan vayron bo'lgan binolar ichidan tirik holda olib chiqildi. Insonlarni vayronalar ostidan tirik holda olib chiqish holatlari kuniga 3-4 nafargacha amalga oshirildi va bu holatlar qariyb 6 kunlar davom etdi.

Birinchi kunlar xizmatni tashkil etishda aniq hududlarni belgilab olish, qidiruv-qutqaruv ishlari hududlariga shaxsiy tarkibni olib borish va olib kelish uchun transport vositalarini jalb etish, oziq-ovqat, ichimlik suvi, shuningdek, maishiy (*kirka, lopata, kuvalda va boshqa*) ish qurollarini harid qilishda bir muncha qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Albatta buning asosiy sabablari AFAD kordinatsion markazida ishlar to'liq tashkil etishning imkoniyati og'irligi, deyarli barcha binolar, shu jumladan barcha do'konlarda zilzila asoratlari ularning ish faoliyatini to'xtatganligi, turli davlatlardan yordam uchun qutqaruvchilarni tinimsiz kelishlari, ularni joylashtirish va boshqa tashkiliy masalalar bilan vaziyat to'liq nazoratga olinmagan holatlar edi. Shunday bo'lsada, qutqaruvchilarimiz missiyasining 2-3 kunlaridan boshlab, o'zlari qaror qabul qilib, ishlashi, shaxsiy tarkibning ovqatlanishi va boshqa tashkiliy masalalarni o'z joyiga qo'yishga muyassar bo'lishdi va bu ishlar qidiruv-qutqaruv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi.

Uch kun ichida "Ovakent" aholi punktida zilziladan vayron bo'lgan binolar ostida qolganlar to'liq olib chiqilib, bu to'g'risida AFAD kordinatsion markaziga ma'lumot

berildi va ushbu aholi punkti Xatay provinsiyasining qidiruv-qutqaruv ishlari yakunlangan birinchi maskani sifatida qayd etildi. Shundan so'ng, AFAD koordinatsion markazi tomonidan O'zbekiston qutqaruvchilariga vayronalar ostida qolganlar soni ko'p bo'lgan "Atay Antakiya gospitali", Odaboshi mahallasidagi ko'p qavatli bino va mehmonxona ishonib topshirildi. Misol tariqasida 1 ta guruh (35-40 nafar qutqaruvchi, 1 ta qidiruv-qutqaruv texnikasi va 2 ta qidiruv itlari tarkibida) qariyb 75 soatlar davomida olib borilgan qidiruv-qutqaruv ishlari jarayonida "Atay Antakiya gospitali"dan 60 nafar insonlar (ya'ni davolanayotganlar)ning jasadlari hamda 2 nafar bemor vayronalar ostidan zilzila oqibatidan olgan tan jarohatlari bilan olib chiqildi. Qutqaruv ishlarini uzluksiz tashkil etish, oldindan hududlarni belgilash, qidiruv ishlari olib boriladigan aniq bino va inshootlarni tanlash, buning natijasida ish suratini ko'tarish, vaqtni tejash maqsadida alohida razvedka-qidiruv guruhlarini tashkil etilib, ushbu guruhlar vayronalar hududlarida binolar ostida qolganlarni aniqlash, qidiruv itlari esa ushbu binolarning aynan qaysi joyida inson borligini aniqlab berishdi. Bu esa qutqaruvchilarimizni xavfsiz ishlashini, vaqtni tejashini va qidiruv-qutqaruv maydonini keng masshtabda olib borilishini ta'minladi. Qutqaruvchilarimiz qutqaruv ishlarini dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan hamkasblari bilan yonma-yon, yelkama-yelka, qolaversa bir-biri bilan qutqaruv anjomlarini almashib ishlashga ko'p marotaba to'g'ri keldi. Bir-birini tillarini tushunmasada, maqsadi, kasbi va vazifasi bir bo'lganligi uchun harakatlarida hech qanday tushunmovchiliklar yuzaga kelmadi, aksincha bir-biridan ko'p narsalarni o'rgandi, halqaro miqyosdagi qutqaruvchilar maqomiga ega bo'lish uchun tajribalar orttirdi.

18 sutka davomida O'zbekiston qutqaruvchilari tomonidan 14 450 m² maydonda 19 400 m³ vayronalarni tozalash ishlari bajarilib, vayronalar ostidan 18 nafar insonlar turli darajadagi tana jarohatlari bilan olib chiqilib tibbiyot xodimlariga hamda 198 nafar insonlarning jasadlari topilib, yaqinlari, ular bo'lmagan hollarda tegishli idora vakillariga topshirilgan. Yuqoridagi qidiruv-qutqaruv ishlarini tezkorlik va samaradorlik bilan tashkil etish uchun 35 turdagi avariya-qutqaruv asbob-anjomlari, 10 turdagi elektr asbob-anjomlari, 3 turdagi moto asbob-anjomlari, 21 turdagi tog'-qutqaruv asbob-anjomlari, 11 turdagi qo'lda ishlatiladigan asbob-anjomlar hamda 13 turdagi boshqa asbob-anjomlar, shuningdek, 1 to'plam (*Inmansart*) sun'iy yo'ldoshli aloqa telefoni va 30 to'plam (*Hytera rusumli*) radioaloqa (garniturasini bilan) vositalaridan foydalanilgan.

Qutqaruv ishlarini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar:

Qutqaruv ishlarini boshqarishda yagona markazlashgan tizimni joriy etish - favqulodda vaziyatlar vaqtida barcha xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona boshqaruv markazini shakllantirish, vakolat va mas'uliyatlarni aniq belgilash orqali tezkor va samarali qaror qabul qilishni ta'minlash.

Zamonaviy raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish - qutqaruv ishlarida dronlar, GIS texnologiyalari, sun'iy yo'ldosh monitoringi, axborot-tahliliy platformalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish.

Qutqaruvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish - xorijiy ilg'or tajribalar asosida amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion treninglar va xalqaro tajriba almashish dasturlarini kengaytirish.

Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash tizimini kuchaytirish - ta'lim muassasalari va mahallalarda muntazam o'quv mashg'ulotlari o'tkazish orqali aholining o'zini o'zi muhofaza qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Idoralararo hamkorlik va axborot almashuvini mustahkamlash - favqulodda vaziyatlarda ishtirok etuvchi barcha tashkilotlar o'rtasida tezkor va uzluksiz axborot almashuvini ta'minlovchi yagona raqamli platformani yaratish.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish - qutqaruv ishlarini tashkil etish bo'yicha mavjud qonun va me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish hamda yangilash.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish - xalqaro qutqaruv tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, qo'shma mashg'ulotlar va treninglar o'tkazish orqali ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, favqulodda vaziyatlardan so'ng, odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash yuzasidan qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirishda vaziyatni to'g'ri baholash, tezkor qarorlar qabul qilish, qutqaruv ishlarining usullaridan hamda foydalaniladigan zamonaviy maxsus texnika, asbob-anjomlar, ta'minlovchi vositalardan to'g'ri va maqsadli foydalanishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari rahbaridan nazariy va amaliy bilim ko'nikmaga ega bo'lishlikni, har tomonlama chiniqqan, tayyorgarlikka ega bo'lgan, tajribali, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, shijoatli, vatanparvarlar, o'z vakolatlariga muvofiq kuch va vositalar faoliyatini to'g'ri boshqara oladigan hamda o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish kabi eng asosiysi esa fuqarolarning bebaho hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda qutqaruv ishlarini amalga oshirishga jalb qilish tartibi to'g'risida"gi 2010-yil 5-yanvardagi 2-sonli Qarori.
3. To'rayev Z.T. "FVni bartaraf etish" Darslik. Toshkent, 2020, 28-56 b.
4. Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha me'yoriy-uslubiy qo'llanmalar. – Toshkent.
5. Gafurov Sh.F., Rahimov Q.R. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini tashkil etish. – Toshkent: Akademiya nashriyoti.
6. Alexander, D. *Principles of Emergency Planning and Management*. – Oxford University Press.
7. Comfort, L. *Managing Disaster: Strategies and Policy Perspectives*. – Duke University Press.
8. Coppola, D. *Introduction to International Disaster Management*. – Elsevier.

9. Haddow, G., Bullock, J., Coppola, D. *Introduction to Emergency Management*. – Butterworth-Heinemann.
10. Perry, R., Lindell, M. *Emergency Planning*. – Wiley.
11. Tierney, K. *The Social Roots of Risk: Producing Disasters, Promoting Resilience*. – Stanford University Press.